

## ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

**Ergashova Gulsanam**

*FarDU filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs 23.85-guruh talabasi*

**Aldashev Ilxomjon**

*FarDU Axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada globallashtirish davrida zamonaviy axborot texnologiyalarining inson hayotiga ta'siri tahlil etilgan. Axborot texnologiyalarining salbiy va ijobiy tomonlari, bu sohada erishilgan yutuqlar tahlilga tortilgan.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy axborot texnologiyalar, ta'lim tizimi, internet tushunchasi, texnik qurilmalar.*

XX asr – zamonaviy axborot texnologiyalari asri. Avvalgi davrlarda insonlar xat yozish orqali bir-birlari bilan aloqa qilishgan. Bu esa insonlarga bir qancha qiyinchiliklar keltirib chiqarar edi. Shu bilan birga ko'p vaqtimizni va pulimizni sarflashga to'g'ri kelar edi. Lekin hozirgi kunga kelib bugungi kun taraqqiyotini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin va bu bizga keng imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Hayotimizda ham ko'plab ijobiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Xususan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan quyidagi shakllarda foydalanish mumkin:

- muayyan predmetlarni o'qitishda kompyuter dasturlari;
- kompyuter darslari ko'rgazmali material sifatida;
- ta'lim oluvchilarning guruhli va frontal ishlarini tashkillashtirishda;
- ta'lim oluvchilarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirishda;
- ta'lim oluvchilarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish masalalarini hal etishda va boshqalar.

Dunyoning qay joyiga bormang, zamonaviy axborot texnologiyalari insonlar uchun xizmat qilmoqda. Xususan, internet orqali insonlar butun dunyo bo'ylab aloqa qilishlari va turli ma'lumotlarni saqlab qolishlari va olishlari mumkin bo'ladi. Hattoki chet elga borgani moddiy tomondan qiynalishimiz mumkin, lekin internet orqali chet elliklarning urf-odatlarini, madaniyati haqida bemalol bilish olishimiz mumkin bo'ladi. Lekin bu texnologiyalarning bir qancha salbiy tomonlari ham mavjud. Hozirgi kunda yaratilayotgan bir qancha o'yinlar yoshlarning ongiga ta'sir qilib, ko'p hollarda o'lim holatiga olib kelmoqda va bu eng katta fojidadir. Manbalarga ko'ra, Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e'tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgan ekan. Bunday salbiy holatlarning oldini olish bizning asosiy vazifamiz hisoblanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari deganda faqatgina internetni tushunib qolmaslik kerak. Multimedia vositalari, robotlar, kompyuter tarmoqlari kabilar ham axborot texnologiyalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Endilikda kompyuter tarmoqlari yordamida masofadan turib o'qish yoki ishlash va qayerda bo'lishingizdan

qat'iy nazar, o'qituvchi yoki ish joyi bilan aloqada bo'lish imkoniyati yaratildi. Bu degani siz har kuni o'qishga yoki ishga borishingiz shart emas, istalgan manzildan faoliyat olib borishingiz mumkin bo'ladi. Onlayn dars o'tib ham pul topishingiz mumkin bo'ladi.

Avtomatik uy jihozlar va shu kabi boshqa jihozlar ham inson hayotini yanada osonlashtirmoqda. Xususan, uy jihozlari bo'lgan mikroto'lqinli pech, changyutgich, kir yuvish mashinasi vaqtimizni tejashga xizmat qilmoqda. Bu bilan bog'liq texnologik yutuqlar ayollarning hayotini o'zgartira boshladi, chunki yuqoridagi vazifalarni, odatda, ayollar bajarar edi. Ularning uydagi yumushlari yengillashgach, ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishga imkoni tug'ildi. Bu biz uchun eng katta yutuqdir. Yoki bo'lmasam, o'zbekistonlik insonlar uchun ham muhim bo'lgan notbuklarni oladigan bo'lsak, bu qurilma orqali insonlar elektron pochталarni yuborish, hujjatlarni osonlik bilan tayyorlash, ma'lumotlar bazasini yaratish va saqlash, biror narsani xarid qilish va sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Lekin ularning ijobiy tomonlaridan salbiy jihatlari ko'proq deb o'ylayman. Chunki notbuk yoki telefonni oladigan bo'lsak, ularning ekranidan taraluvchi yorug'lik insonlarning uyqusiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shubhasiz.

Hamma ishimiz onlayn bo'layotganligi sababli bir qancha kasblarga ehtiyojimiz kundan kunga ortib bormoqda. Xususan, onlayn xarid va elektron tijorat ommalashib borayotgani yetkazib beruvchilar sonini ko'paytirmoqda. Onlayn do'konlar soni ham ko'payib, katta daromadlarga ega bo'lmoqdalar.

Shuningdek, bugungi kunda Axborot texnologiyalari markazlari tashkil etilib, ko'plab yoshlar ta'lim olmoqdalar. Lekin shunga qaramay, axborot texnologiya sohasidagi mutaxassislarga bo'lgan talab oshib bormoqda, buning natijasida sohada kadrlar yetishmasligi davlat boshqaruvida ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Tabiiyki, buning natijasi o'laroq, ularning ish haqining keskin oshishiga sabab bo'ladi. Shu sababli bu sohaga qiziquvchilar soni kun sayin ortib bormoqda va ularning eng yaxshilarini saralab olish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, zamonaviy axborot texnologiyalari nafaqat yoshlarga bilim olishga yordam bermoqda, balki ularning vaqtini samarali o'tkazishga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Lekin shuni unutmash kerakki, hatto bo'sh paytlarda ham faqatgina kerakli va foydali bo'lgan saytlarga kirib, ulardan to'g'ri va unumli foydalanish zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik Ozbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., Ozbekiston: NMIU, 2016.

2. B.Xodjayev, M.Maxmudova. Oquvchi – yoshlarda axborot istemoli madaniyatini rivojlanish texnologiyasi. – T., "TAFAKKUR QANOTI", 2016.

3. TALIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA METODLAR VA ULARNING IMKONIYATLARI I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023
4. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O'RNI M To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
5. O'QUV JARAYONIGA MEDIA TA'LIMNING INTEGRATSIYASI I Aldashev - Scientific journal of the Fergana State University, 2023
6. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. Talqin va tadqiqotlar, 1(6).
7. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. Экономика и социум, (6 (73)), 341-344.
8. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo'llanilishi. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE"
9. THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 2, No. 1, pp. 107-113).  
Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang'ich Sinflarda Ta'lim Sifatini Oshirishda Aktdan Foydalanish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(13), 69-74.
10. Mirzaakbarov, D. D. (2021). DIRECTIONS FOR THE INTRODUCTION OF NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. Экономика и социум, (4-1), 211-214.
11. O'QITUVCHI ISHINDA IJODIY YONDARISH XUSUSIYATLARI I Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
12. Ta'lim jarayonida kompyuter o'yin texnologiyalarining o'rni\*ITX Aldashev - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2022
13. The importance of primary school teachers to use act in their activities T Tojiyev, I Aldashev - 2022
14. Victoria Wright and Denise Taylor "Informatika va axborot texnologiyalari" kitobi.
15. Taylaqov N.I. "Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbollari".